



XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr

VI-15-113-2-36-K/25

Kogon tumani

Kogon tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2026 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2025 yil 25-dekabrda O'RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2025 yil 30-dekabrda VII-21-112-2-0-K/25-son qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Kogon tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining "Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (keyingi o'rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Kogon tuman mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **88,824378 mlrd.so'm** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **88,824378 mlrd.so'mga** tasdiqlanganligi, shuningdek, Kogon tuman mahalliy budjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **0,812 mlrd.so'm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Kogon tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda Kogon tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning

cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Kogon tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kogon tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun **1,11105 mlrd.so'm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

5. Kogon tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari U.Zadayev, Kogon tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Sh.Narziyev), Kogon tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

6. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Kogon tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

o'z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kogon tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Ravshanov) hamda Kogon tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari U.Zadayev zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi



**QAZOQOV
OTABEK
NODIROVICH**

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-15-113-2-36-K/25 -son qaroriga
1-ilova

			1-ilova
Kogon tuman budjeti daromadlarining			
2026-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari			
			ming so'mda
T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0.0	1,734,700.0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6,679,000.0	6,679,000.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	7,585,850.0	9,313,760.0
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	0.0	784,520.0
5	Aksiz solig'i, jami	0.0	1,842,900.0
	<i>shu jumladan:</i>		
	- <i>alkogol mahsulotlaridan soliq</i>	<i>0.0</i>	<i>0.0</i>
	- <i>benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq</i>	<i>0.0</i>	<i>1,842,900.0</i>
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,644,000.0	11,245,000.0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9,208,000.0	9,208,000.0
8	Yuridik shaxslar yer solig'i	3,713,000.0	25,464,440.0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	16,572,508.0	16,572,508.0
10	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0.0	1,049,000.0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,000.0	4,041,000.0
12	Davlat boji	0.0	212,800.0
13	Jarimalar	0.0	400,450.0
14	Ijara to'lovi	159,000.0	159,000.0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0.0	0.0
16	Yig'imlar	0.0	117,300.0
17	Xususiylashtirish	0.0	0.0
18	Boshqalar	0.0	0.0
JAMI		46,039,358.0	88,824,378.0

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-15-113-2-36-K/25 -son qaroriga
2-ilova

		2-ilova
2025-yil uchun Kogon tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari		
		ming so'm
№	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	88,824,378.0
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	22,132,982.0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1,545,000.0
2	Madaniyat bo'limi	4,296,764.0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi	3,196,576.0
4	Sport bo'limi	8,027,658.0
5	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1,705,736.0
6	Qishloq xo'jaligi soha tashkilotlari	2,949,360.0
7	Suv yetkazib berish xizmati DM	1,688,050.0
8	Iqtisodiyot va moliya bo'limi	2,232,480.0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo'limi Ijtimoiy ko'nikma markazlari xarajatlari	102,471.0
10	Hokimiyat	22,542,113.0
	shundan:	
	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</i>	<i>10,250,771.0</i>
	<i>"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari</i>	<i>1,355,000.0</i>
	<i>Zahira jamg'armasi</i>	<i>1,111,105.0</i>
11	Hokimiyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1,015,661.0
	shundan:	
	<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	<i>101,633.0</i>
	<i>Axborot-kutubxona markazlari</i>	<i>914,028.0</i>
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	18,934,527.0

13	Boshqa tashkilotlar	0.0
----	---------------------	-----

foiz hisobida

davomi

davomi

№	Hududlar nomi	Aylanma dan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i		Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy miqdorda belgilangan soliq		Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari		Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga
1	Kogon	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	5%	95%	5%	95%	5%	95%

